

## LA'L TIMSOLINING NAVOIYONA TALQINLARI

Qarshiyeva Aziza Xusan qizi,  
Turon universiteti tadqiqotchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18451438>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Alisher Navoiy lirikasida keng qo'llangan va ramziy-majoziy qatlamlarga boy bo'lgan "la'l" timsolining adabiy-irfoniy talqinlari tizimli ravishda tekshiriladi. Tadqiqotda "la'l" obrazining "Xazoyinul-maoniy" kulliyotidagi qo'llanish chastotasi, shakliy ko'rinishlari va janrlar kesimidagi ishtiroki statistik usulda aniqlanib, uning badiiy-estetik, irfoniy-tasavvufiy hamda semantik qatlamlari ochib beriladi. Shuningdek, "la'l" timsolining lab, kalom, ma'rifat, jonbaxshlik, Iso Masih, obi hayvon, pir kalomi kabi ramzlar bilan uzviy aloqasi tahlil qilinib, Navoiy poetik tafakkurida mazkur timsolning obraz darajasiga ko'tarilishi ilmiy asosda yoritiladi. Maqolada "la'l" timsoli nafaqat badiiy bezak, balki tasavvufiy dunyoqarashni ifodalovchi muhim konseptual birlik sifatida baholanadi.

**Kalit so'zlar:** la'l, timsol, tasavvuf, lab, kalom, Xazoyinul-maoniy.

**Аннотация.** В данной статье системно исследуются литературно-ирфанские интерпретации символа «лаъл», широко используемого в лирике Алишера Навои и отличающегося богатством символично-метафорических слоёв. В ходе исследования с применением статистического метода определяется частотность употребления образа «лаъл» в собрании «Хазоин ул-маоний», его формальные проявления и участие в жанровом разрезе, а также раскрываются его художественно-эстетические, ирфанско-суфийские и семантические уровни. Кроме того, анализируется органическая связь символа «лаъл» с такими образами, как губы, слово, познание, жизнедарение, Иисус Христос, вода жизни, слово пира, и на научной основе освещается возведение данного символа до уровня образа в поэтическом мышлении Навои. В статье символ «лаъл» оценивается не только как художественное украшение, но и как важная концептуальная единица, выражающая суфийское мировоззрение.

**Ключевые слова:** лаъл, символ, суфизм, губы, слово, Хазоин ул-маоний.

**Abstract.** This article systematically examines the literary and irfanic interpretations of the symbol la'l, which is widely employed in the lyrics of Alisher Navoi and is rich in symbolic and metaphorical layers. Using statistical methods, the study identifies the frequency of the symbol la'l in the collection "Khazoyin ul-maoni", its formal variations, and its distribution across genres, while also revealing its artistic-aesthetic, irfanic-Sufi, and semantic dimensions. Furthermore, the article analyzes the intrinsic connections of the la'l symbol with such notions as lips, speech, gnosis, life-bestowing power, Jesus Christ, the water of life, and the words of the spiritual master, and on a scholarly basis elucidates the elevation of this symbol to the level of a poetic image in Navoi's poetic thinking. The study concludes that the symbol la'l functions not merely as an artistic ornament, but as a significant conceptual unit expressing the Sufi worldview.

**Keywords:** la'l, symbol, Sufism, lips, speech, Khazoyin ul-maoni.

**Kirish.** Mumtoz Sharq adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodi islomiy-irfoniy tafakkur, botiniy kamolot falsafasi hamda ramziy-badiiy ifodaning yuksak namunalarini mujassam etgan ulkan adabiy merosdir. Tasavvuf ta'limoti insonning ko'ngil tozaligi, fano va baqo, Haqqa yetishish, botin ilmini idrok etish kabi murakkab ruhiy jarayonlarni bevosita nazariy bayon orqali emas, balki ramz va timsollar vositasida ifodalashni taqozo etadi. Shu bois mumtoz she'riyatda ko'plab so'z va tushunchalar o'zining zohiriy ma'nosi bilan cheklanib qolmay, chuqur adabiy-irfoniy mazmun kasb etadi.

Tasavvufiy dunyoqarashning bunday ramziy tabiatini Shayx Ibrohim Afandining quyidagi misralari yorqin ifodalaydi:

*Tasavvuf jumla zarroti jahonda Haqni ko'rmoqdir,*

*Tasavvuf kun kibi kavnga namoyon o'lmoqqa derlar [7:448].*

Bu misralarda ifodalanganidek, tasavvuf – borliqning har bir zarrasida Haq tajalliyini ko'rish va uni idrok etish ilmi bo'lib, ana shu haqiqatni badiiy til orqali namoyon etish ramzlar vositasida amalga oshadi. Tasavvufiy ramz – bu muayyan so'zning mukammal iymon, botiniy idrok va irfoniy tajriba bilan bog'langan holda asar matnida qo'llanishidir. Shuning uchun ham mumtoz adabiyot matnlarini, ayniqsa, Navoiy singari buyuk mutafakkir shoir ijodini to'g'ri va teran anglash uchun tasavvuf istilohlari va ramzlar tizimini chuqur bilish muhim ilmiy zarurat hisoblanadi. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, ming yillik mumtoz adabiyotimizda ramz tili orqali badiiy talqin qilingan haqiqatlarning mohiyatiga yetish, ularning adabiy-irfoniy qatlamidan bahramand bo'lish uchun tasavvuf istilohlariga oid izohli yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Mumtoz adabiyotda, xususan, Alisher Navoiy ijodida tasavvufiy ramzlarning nihoyatda keng va rang-barang tizimi shakllangan bo'lib, tadqiqotchilar tomonidan shoir asarlarida 1500 dan ortiq irfoniy ramz va timsollar qayd etilgan [7.2]. Bu ramzlar Navoiy poetikasining ichki falsafiy asoslarini, uning estetik idealini va tasavvufiy dunyoqarashini ochishda muhim kalit vazifasini bajaradi. Ana shunday ramzlardan biri – “la'l” timsoli bo'lib, u Navoiy lirikasida alohida ma'no qatlamlariga ega. Zohiran qimmatbaho tosh ma'nosini anglatuvchi “la'l” so'zi Navoiy poetikasida *lab, kalom, jonbaxshlik, ilohiy fayz, pir so'zi, ma'rifat nuri, ruhni tiriltiruvchi rahmoniy nafas* kabi keng va ko'p qatlamli mazmunlarni o'zida mujassam etadi. Hatto ayrim baytlarda u Iso Masih timsoli bilan tutashib, “tiriltiruvchi kalom” va “obi hayot” ma'nolarining ramziy ifodasiga aylanadi. Bu timsol tasavvufda “darveshning ko'ngli” ma'nosida ham keladi [9.226]. “La'l” timsolining bunday ko'p qirrali semantik maydon hosil qilishi Alisher Navoiy tafakkurining tasavvufiy, falsafiy va estetik asoslari bilan uzviy bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, “la'l” timsolining “Xazoyinul-maoniy” kulliyotida qo'llanish miqyosi, shakliy-semantik variantlari, janrlar kesimidagi taqsimoti hamda ramziy-funksional vazifalarini tizimli va kompleks tadqiq etish nafaqat Navoiy lirikasini chuqurroq anglash, balki umuman mumtoz o'zbek adabiyotidagi tasavvufiy obrazlar tizimining ishlash mexanizmlarini yoritish uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda Alisher Navoiy lirikasida “la'l” timsolining qo'llanish xususiyatlarini aniqlash uchun statistik va tavsifiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Timsolning adabiy-irfoniy mazmunini ochishda hermenevtik hamda fenomenologik yondashuv asosiy metodologik mezon bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, tarixiy-qiyosiy va kompleks tahlil usullari yordamida “la'l” obrazining shakliy-semantik variantlari, janrlar kesimidagi ishtiroki hamda tasavvufiy funksiyalari tizimli ravishda o'rganildi.

**Tahlillar va natijalar.** “Xazoyinul-maoniy” kulliyotida Alisher Navoiy poetikasining eng faol va ko‘p qatlamli ramzlaridan biri “la’l” timsolidir. Zohiran qimmatbaho toshni anglatgan bu so‘z shoir ijodida moddiy ma’no doirasidan chiqib, murakkab adabiy-irfoniy va tasavvufiy mazmun kasb etgan markaziy badiiy obraz darajasiga ko‘tariladi. Navoiy lirikasida “la’l” ayniqsa “labi la’l” shaklida konseptuallashib, tasavvufiy poetikada kalomning jonbaxsh manbai sifatida talqin qilinadi. “Labi la’l” timsoli bir necha izchil semantik qatlamda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, u Rahmoniy nafas – mavjudotga vujudiy fayz yetkazuvchi ilohiy so‘z va nafas timsoli bilan bog‘lanadi. Ikkinchidan, ma’shuq kalomi sifatida oshiq qalbini uyg‘otuvchi, husn-u jamol zikrini va botiniy nozik ishoralarni mujassam etgan ma’rifiy “so‘z” ma’nosini anglatadi. Uchinchi qatlamda “labi la’l” solik tajribasida botiniy fayzlar va ruhoniylazatlar oqimini ifodalab, qalbni g‘aflatdan uyg‘otuvchi ma’rifat nash‘asining ramziga aylanadi. To‘rtinchidan, Lohijiy talqiniga tayangan holda, mazkur timsol izzat pardasi ostida yashiringan mujarrad ruhlari va nuqson sifatlardan poklangan jonlar olamiga ishora qilib, “lab”ni tashqi a‘zo emas, balki poklangan sirlar makoni sifatida namoyon etadi [7.169–170]. Shu tariqa “labi la’l” Navoiy poetikasida *lab – kalom – fayz* zanjirini hosil qiluvchi markaziy ramz bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida zohiriy go‘zallik belgisi va ilohiy so‘zning botiniy qudratini mujassamlashtiradi.

Navoiy ijodida “la’l” ko‘pincha *lab, kalom, jonbaxshlik, ilohiy fayz va ruhiy hayot manbai* bilan uzviy bog‘lanib, insonni ma’naviy tiriltiruvchi kuch timsoli sifatida talqin etiladi. Bu hol shoirning tasavvufiy tafakkuri va irfoniy dunyoqarashi bilan bevosita aloqador bo‘lib, “la’l” orqali so‘z va ma’rifatning ilohiy mohiyati poetik ifoda topadi. Ushbu mazmun quyidagi baytda ayniqsa teran ifodalangan:

*Ko‘zidin to jong‘a yetman la’lidan bermas hayot,  
Ul Masih o‘ldum deganda tirgizur bemorini [1.621].*

Mazkur baytda “la’l” Hazrati Iso Masih obrazi bilan ramziy qiyoslanadi. Tasavvufiy an’anada Iso Masih kalom va nafas orqali jon bag‘ishlovchi payg‘ambar sifatida talqin qilinadi. Navoiy ana shu irfoniy qarashga tayangan holda, ma’shuqaning la’li, ya’ni labidan chiqqan kalomni Masihning tiriltiruvchi nafasiga tenglashtiradi. Natijada “la’l” bu yerda go‘zallik timsolidan tashqari, qalbni tiriltiruvchi *ilohiy so‘z, Rahmoniy fayz va ma’rifat manbai* sifatida namoyon bo‘ladi. Baytda qo‘llangan istiora san’ati poetik bezakdan ko‘ra, tasavvufiy-irfoniy dunyoqarashni ifodalovchi chuqur ma’nolarni ochishga xizmat qiladi. Chunki tasavvufda haqiqiy hayot jismoniy mavjudlik emas, balki ilohiy kalom va ma’rifat orqali qalbning uyg‘onishi sifatida tushuniladi.

“La’l” timsolining yuksak ma’naviy maqomi Sharq ilmiy-madaniy an’analarida qimmatbaho toshlarga berilgan ramziy baholar bilan ham mushtarakdir. Xususan, Abu Rayhon Beruniyning “al-Jamohir fi Ma’rifatu-l-Javohir” asarida qimmatbaho ma’danlarning nafaqat tabiiy-jismoniy xossalari, balki ularning ruhiy, shifobaxsh va ramziy ahamiyati ham tahlil qilinadi. Beruniy la’lni yoqutga eng yaqin, qirmizi rangli,

shaffof va nihoyatda jozibador tosh sifatida tavsiflab, ayrim jihatlarda uni go‘zallik va ta‘sir kuchi nuqtayi nazaridan yoqutdan ham ustun qo‘yadi [8.99]. Bu qarash Sharq tafakkurida la‘lning hayot, qon, ishq va ruh bilan bog‘liq timsol sifatida shakllanishiga mustahkam zamin yaratgan.

Navoiy ana shu ilmiy va irfoniy an‘analarni chuqur o‘zlashtirgan holda, la‘l timsolini tasavvufiy poetikaning markaziy obrazlaridan biriga aylantiradi. Shoir ijodida la‘l lab bilan, lab kalom bilan, kalom esa Haqdan keluvchi ilohiy fayz bilan uzviy bog‘lanadi. Shu sababli Navoiy lirikasida “la‘l” ko‘pincha *pir so‘zi, ma‘rifat kalomi, darveshning pok ko‘ngli* va *Haq visoliga eltuvchi vosita* sifatida talqin qilinadi. Bu jarayonda la‘l obrazi “ma‘dan – lab – kalom – hayot – Haq” kabi izchil semantik zanjirni hosil qilib, shoirning so‘zga, kalomga va ma‘rifatga bo‘lgan tasavvufiy munosabatini yoritadi.

Demak, “la‘l” timsoli “Xazoyinul-maoniy” kulliyotida badiiy bezak doirasidan ancha keng ma‘noda qo‘llanib, Alisher Navoiyning irfoniy dunyoqarashi, tasavvufiy poetikasi va borliq haqidagi falsafiy qarashlarini mujassam etgan markaziy ramzlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu obraz orqali shoir so‘zning ilohiy qudratini, kalomning jonbaxsh mohiyatini va ma‘rifatning inson ruhini tiriltiruvchi kuchini yuksak badiiy-falsafiy darajada ifodalaydi.

Navoiy poetikasida la‘l bir tomondan dudoq (lab) ma‘nosida kelib, so‘z, kalom va nafas bilan bog‘lanadi, ikkinchi tomondan esa *darveshning ko‘ngli, ya‘ni ilohiy fayz va ma‘rifat nurlarini qabul qiluvchi botiniy markaz* timsolini ifodalaydi [7.170]. Shu bois “la‘l” obrazida modda va ma‘no, zohir va botin, jism va ruh birlashadi.

“Xazoyinu-l-maoniy” kulliyotida la‘l timsoli nihoyatda serqirra istioralar orqali kengaytiriladi. Masalan, *la‘li lab, labi la‘l, la‘li shirin, shirin la‘li, la‘li shirinkor, la‘li shakkarxand, shakkari la‘l, la‘li shakarborin, shakarguftor la‘l, nabot la‘li, chuchuk la‘l* kabi istioralar la‘lni shirinlik, lazzat va jonni quvvatlantiruvchi ilohiy kalom ramziga aylantiradi. Bu yerda lab – Haqdan keluvchi so‘z, la‘l esa ana shu so‘zning jonbaxsh mohiyatini ifodalaydi.

Boshqa bir qatlamda la‘l hayot va ruh bag‘ishlovchi kuch sifatida talqin qilinadi. *La‘li jonbaxsh, jonbaxsh la‘l, la‘li jon, jon la‘li, la‘li jonparvar, ravonbaxsh la‘l, jonfizo la‘l, la‘li ruhafzo, la‘li ruhparvar, la‘li anfosi* kabi istioralar la‘lni Hazrati Iso Masihning tiriltiruvchi nafasi bilan bog‘laydi. Bu talqinda la‘l – qalbni tiriltiruvchi ilohiy nafas, ma‘rifat va hayot manbaidir.

La‘l obrazi ishq va nash‘a doirasida ham keng qo‘llanadi. *Bodayi la‘l, la‘li boda, la‘li may, mayi la‘l, la‘li maygun, paymonayi la‘l, la‘l-u jom, la‘li jom, sharbati la‘l* kabi birikmalar tasavvufiy an‘anadagi may ramzi bilan tutashib, ma‘rifat, ilohiy ishq va ruhiy mastlik holatini ifodalaydi. Bu yerda la‘l – pir kalomi yoki ilohiy visol nash‘asidir.

Ko‘ngil va iztirob qatlamida esa *ashk la‘li, qon la‘li, bag‘ir la‘li, la‘l axgari, otashin la‘l, la‘li otashin, la‘li otashnok, sirishkim la‘l* kabi istioralar uchraydi. Ular la‘lni ishq

yoʻlidagi dard, hijron va ichki yonish ramziga aylantiradi. Bunda laʼl nafaqat goʻzallik, balki fidoiylik va iztirob bilan poklangan qalb timsolidir.

Shuningdek, laʼl kamolot va qimmat ramzi sifatida *laʼl-u durri, durri laʼl, gavharbor laʼl, laʼli gavharbor, javhari laʼl, laʼling javhari, laʼli durfishon, laʼli durji, inju laʼl, laʼli zumurrad, laʼli yoqut, yoquti laʼl, aqiqi laʼl, shahvor laʼl, laʼli Badaxshon* kabi birikmalarda namoyon boʻladi. Bu istioralar laʼlni maʼnaviy boylik, komillik va ilohiy neʼmat timsoliga aylantiradi.

Ayrim hollarda laʼl soʻz, nutq va maʼno bilan bevosita bogʻlanadi. *Laʼli kalom, laʼli hadisi, laʼli alfoz, laʼling surudi, laʼli paygʻomi, laʼli kom, komi laʼl* kabi istioralar laʼlni Haqdan keluvchi kalom, ilhom va maʼrifat xabari sifatida talqin qiladi. Bu yerda laʼl – purning soʻzi, ilohiy haqiqatning poetik ifodasidir.

Bundan tashqari, laʼl rang va koʻrinish orqali ham ramzlashtiriladi: *laʼlgun, laʼliy rang, laʼl rang, laʼli rangomez, laʼli shurangez, laʼlfom, laʼlporalar, laʼli sayyol, laʼli mahlul, laʼli muzob, laʼli xurdado, rutab laʼl* va boshqalar. Bu shakllar laʼl timsolining rang, harakat va holat bilan bogʻliq semantik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Navoiy poetikasida laʼl timsoli soʻzning ilohiy qudratini, qalbning tirilishi va insonning botiniy kamolot sari harakatini ifodalovchi markaziy tasavvufiy ramzlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

“Xazoyinu-l-maoniy” kulliyotini tashkil etuvchi toʻrt devon – “Gʻaroyibu-s-sigʻar”, “Navodiru-sh-shabob”, “Badoyeʼu-l-vasat” va “Favoyidu-l-kibar” kesimida olib borilgan statistik tahlil natijalari “laʼl” timsolining Navoiy lirikasida naqadar markaziy oʻrin tutishini yaqqol koʻrsatadi. Jumladan, “laʼl” va u bilan bogʻliq ramziy birliklar “Gʻaroyib us-sigʻar” devonida 177 marta, “Navodiru-sh-shabob” devonida 191 marta, “Badoyeʼu-l-vasat” devonida 179 marta hamda “Favoyid ul-kibar” devonida 156 marta uchraydi. Ushbu raqamlar shoir ijodining barcha davrlarida laʼl timsoli izchil va barqaror tarzda qoʻllanganini, u yosh davr lirikasidan tortib keksalik davri poetikasigacha uzluksiz semantik ahamiyat kasb etganini koʻrsatadi. Ayniqsa, “Navodir ush-shabob” va “Badoyeʼ ul-vasat” devonlarida laʼl timsolining nisbatan yuqori chastotada uchrashi ishq, nashʼa va maʼrifat motivlarining faol boʻlgan ijodiy bosqichlarida mazkur obrazning irfoniy-poetik funksiyasi yanada kuchayganidan dalolat beradi. Shu jihatdan, statistik koʻrsatkichlar “laʼl” timsolining Navoiy poetikasida tasodifiy badiiy bezak emas, balki butun kulliyot boʻylab izchil rivojlangan markaziy tasavvufiy obrazlardan biri ekanini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Tadqiqot jarayonida laʼl bilan bogʻliq 88 xil shakl aniqlanib, ular gʻazal janrida 703 marta qoʻllangani maʼlum boʻldi. Mazkur shakllarning aksariyati istiora sanʼati orqali vujudga kelgan boʻlib, laʼlning majoziy-tasavvufiy qirralarini ochishga xizmat qiladi. Jumladan, laʼli jonbaxsh, laʼli ruhafzo, laʼli gavharbor, laʼli shakkarxoy, laʼli mahlul, laʼli durfishon, laʼli rummoniy kabi birikmalar laʼl timsolining ruhni tiriltiruvchi, qalbni nurlantiruvchi va ilohiy fayz manbai sifatidagi mazmunini yuzaga chiqaradi. Bu

istioralarda la'l moddiy toshdan ma'naviy mohiyatga ko'tarilib, tasavvufiy tafakkur doirasida *hayot, ma'rifat va kalom* bilan bog'lanadi.

La'l bilan kelgan sifatlovchilarning semantik tahlili ularning ikki asosiy qatlamga ajralishini ko'rsatadi. Birinchi qatlam la'lning tabiiy va moddiy xususiyatlariga ishora qiladi (masalan, obdor la'l, la'li sufti, la'li rummoniy), ikkinchi qatlam esa o'rta asrlar Sharq tafakkurida la'lga berilgan ijtimoiy va ramziy qiymatni ifodalaydi (masalan, shahvor la'l, la'li Badaxshon, gavharbor la'l). Bu hol Navoiy poetikasida moddiy qadriyatning irfoniy mazmunga aylanish jarayonini yaqqol namoyon etadi.

Kulliyotda la'l timsolining eng faol semantik yo'nalishi – uning lab ma'nosi bilan bog'liq talqinidir. Mumtoz adabiyotda “lab” nafaqat dudoqni, balki kalom, rahmoniy nafas, ilohiy sir va ma'rifat manbaini anglatadi. Shu bois la'li lab orqali shoir ko'pincha ilohiy kalomning jon baxsh etuvchi qudratini tasvirlaydi:

*La'li ruhafzosidin bir bo'sa payg'om ayladi,  
Garchi yolg'on erdi, men jon toptim ul payg'omdin.*

Bu talqin la'l timsolini so'z va ma'rifat bilan uzviy bog'lab, uni botiniy idrok vositasiga aylantiradi. La'lning jonbaxshlik xususiyati ayrim baytlarda Hazrati Iso Masih obrazi bilan ramziy tarzda tutashtiriladi. “La'li obi hayvon” singari istioralar orqali la'l tiriklik suvi, ya'ni ruhiy hayot va ilohiy quvvat manbai sifatida talqin qilinadi. Bu hol tasavvufda keng tarqalgan “so'z orqali tiriltirish” g'oyasi bilan hamohangdir.

Shuningdek, soqiy va may bilan bog'liq baytlarda la'l timsoli yanada murakkab tasavvufiy tizimga ulanadi. Bu kontekstda soqiy piri komilni, may ma'rifat bilan sug'orilgan ilohiy kalomni, la'l esa Haq visolining javharini anglatadi. Demak, la'l bu yerda solik uchun oliy maqsad – Haqqa yetishish ramziga aylanadi.

Navoiy lirikasida ma'shuq labini izlash, ammo topa olmaslik mazmunidagi satrlarda oshiqning ma'naviy izlanishi va botiniy talabi ifodalanadi. Bu yerda lab oddiy somatizm emas, balki tasavvufiy istilohda *ilohiy kalom, rahmoniy nafas, ma'rifat manbai* va *Haq sirlarini ochuvchi vosita* ramzidir. Oshiqning “so'rash”i esa zohiriy savol emas, balki solikning murshid, ilohiy kalom yoki tajalliy manбайдan haqiqat sirini anglashga bo'lgan botiniy intilishidir. Biroq bu intilish natijasiz qoladi: sir ochilmaydi, og'izning “so'rog'i” topilmaydi. Bu hol tasavvufda keng tarqalgan g'oyaga – ilohiy haqiqatni so'z va idrok bilan to'liq egallab bo'lmasligi haqidagi qarashga uyg'undur. Demak, oshiq ko'p so'raydi, ammo sir ochilmaydi, chunki bu sir aql va til bilan emas, faqat hol va tajriba bilan idrok etiladi:

*Bovujudkim, adam bo'ldum g'amidin qayg'urub,  
Hech og'zining so'rog'in la'lidin topman so'rub.*

Bu yerda oshiq o'z holatini “adam bo'ldum”, ya'ni yo'qlik, fanolik holati bilan ifodalaydi. Tasavvufiy tafakkurda adam – Haq huzurida o'zlikdan kechish, “men”likni yo'qotish, fano maqomiga yaqinlashish holatidir. Oshiq g'am yo'lida o'zligini yo'qotgan, ammo shunga qaramay, la'l – ya'ni jonbaxsh lab, ilohiy kalom orqali ham sirga

yetolmaydi. Bu hol paradoksal ko‘rinsa-da, tasavvufda juda muhim ma‘noni anglatadi: hatto fano holatiga yaqinlashishning o‘zi ham Haq siriga to‘liq yetish uchun kifoya emas, chunki ilohiy sir insonning irodasi bilan emas, Haqning inoyati bilan ochiladi. Shu tariqa, ushbu bayt Navoiy poetikasida ma‘rifatning yopiq tabiati, sirning oshkor bo‘lmasligi va solikning cheksiz intilishini ifodalaydi. La‘l bu yerda ma‘rifat manbai bo‘lsa-da, uning javhari darhol berilmaydi; oshiq esa savol beruvchi emas, balki sabr, fanolik va hol orqali yetiluvchi solik sifatida namoyon bo‘ladi. Bu talqin Navoiy tasavvufiy lirikasining eng nozik irfoniy qatlamlaridan birini tashkil etadi.

Tasavvufiy talqinda la‘l timsoli ko‘p qatlamli ma‘nolarni o‘zida mujassam etadi. U nafaqat moddiy ma‘noda qimmatbaho toshni, balki *yo‘qlik (adam), vahdat, fanofilloh, ma‘naviy fayz va ruhiy nash‘a* kabi yuksak irfoniy holatlarni ham ifodalaydi [7:169]. Ayniqsa, Navoiy lirikasida la‘l ko‘pincha jonbaxsh kalom, ilohiy nafas va tiriltiruvchi qudrat ramzi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shoirning:

*La‘li jonbaxshing takallum vaqti bir-bir sochti dur,  
Alloh-Alloh, kim ko‘ribtur bo‘yla gavharbor la‘l [2.375], –*

baytida la‘l mashuqaning yoki piring jon baxsh etuvchi kalomi sifatida talqin qilinadi. Bu yerda so‘zlash jarayoni oddiy nutq emas, balki ma‘rifat durlarini sochuvchi ilohiy tajallidir. “Dur sochish” istiorasi ilohiy kalomning qalblarga hayot, fayz va nur bag‘ishlashini anglatadi. La‘lning “gavharbor” sifatida tasvirlanishi esa uning ma‘naviy boylik va ilohiy sirlar manbai ekanini ta‘kidlaydi.

Quyidagi baytda esa la‘l timsoli yanada teranlashib, obi hayvon – tiriklik suvi bilan bog‘lanadi:

*Chunki ko‘rdungkim, o‘lubmen, tutma motam, qayt bot,  
Ul dami jonbaxsh-u la‘li obi hayvonimg‘a yet (N.Sh. 78-g‘).*

Bu yerda oshiqning “o‘ldim” deya murojaat qilishi jismoniy o‘limni emas, balki tasavvufiy ma‘noda fano holatini bildiradi. “La‘li obi hayvon” istiorasi orqali la‘l tiriltiruvchi ilohiy nafasga tenglashtiriladi. Bu ramz bevosita Hazrati Iso Masih timsolini yodga soladi, chunki tasavvufiy an‘anada Iso Masihning mo‘jizasi – o‘likni tiriltirish – ilohiy kalom va nafas qudrati bilan bog‘lanadi. Demak, la‘l bu o‘rinda solikni fano holatidan baqo sari yetaklovchi ilohiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Navoiy la‘l timsolini soqiy–may ramzlari bilan ham uzviy bog‘laydi:

*Soqiyo, hayvon suyin mamzuj qilsang ichmagay,  
Gar Navoiy topmasa may ichra la‘ling javharin [1:518].*

Bu baytda soqiy – piri komil, may – uning ma‘rifat bilan yo‘g‘rilgan so‘zi, la‘l esa Haq visolining javhari sifatida talqin etiladi. Oshiq uchun mayning tashqi ta‘siri emas, balki uning ichidagi la‘l javhari, ya‘ni ilohiy haqiqat muhimdir. Agar bu javhar topilmasa, hatto tiriklik suvi bilan aralashtirilgan may ham qoniqtirmaydi. Bu hol tasavvufda keng tarqalgan g‘oyani ifodalaydi: zohiriy fayz emas, botiniy visol hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shu tariqa, keltirilgan baytlar misolida ko‘rinadiki, Navoiy poetikasida la‘l timsoli yo‘qlikdan vahdatga, fano holatidan baqo maqomiga olib boruvchi jonbaxsh, sirli va ilohiy qudrat ramziga aylanadi. U kalom, nafas, visol va ma‘rifat manbai sifatida shoirning tasavvufiy-falsafiy tafakkurini mujassam etib, Navoiy lirikasining eng nozik irfoniy qatlamlarini yoritadi. “Xazoyinu-l-maoniy” kulliyotida “la‘l” timsoli faqat g‘azal janri doirasida emas, balki ruboiy, qit‘a, fard, tuyuq, muxammas, musaddas, tarjiband, qasida, mustazod va soqiynoma kabi boshqa janrlarda ham faol qo‘llanilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, g‘azaldan tashqari janrlarda “la‘l” va u bilan bog‘liq istioralarning 22 xil shakli aniqlanib, ular jami 48 marotaba uchraydi. Bu hol la‘l timsolining Navoiy poetikasida janrlararo universallikka ega ramz ekanini ko‘rsatadi. Devonlar kesimida qaralganda, “G‘aroyibu-s-sig‘ar”da 12 marta, “Navodiru-sh-shabob”da 5 marta, “Badoye‘u-l-vasat”da 12 marta, “Favoyidu-l-kibar”da esa 19 marta g‘azaldan tashqari janrlarda qo‘llanishi kuzatiladi. Ayniqsa, so‘nggi devonda bu timsolning ko‘proq uchrashi Navoiy tafakkurida la‘l obrazining irfoniy yetuklik bosqichiga ko‘tarilganini anglatadi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “la‘l” timsoli Alisher Navoiy lirikasida eng faol va serqatlam ramzlardan biri bo‘lib, u shoir poetikasida oddiy ma‘dan nomi darajasidan chiqib, mukammal badiiy-tasavvufiy obraz sifatida shakllangan. “Xazoyinu-l-maoniy” kulliyotida “la‘l” va u bilan bog‘liq shakllarning 751 marta qo‘llanishi bu timsolning Navoiy estetik tizimidagi markaziy o‘rnini yaqqol tasdiqlaydi. “La‘l” obrazining lab, kalom va jonbaxshlik bilan bog‘lanishi Navoiy tasavvufiy tafakkurida so‘zning ilohiy mohiyatini, ya‘ni Rahmoniy nafas va ma‘rifat fayzini ifodalovchi muhim ramz ekanini ko‘rsatadi. Xususan, “la‘li jonbaxsh”, “la‘li obi hayvon”, “la‘li ruhafzo” kabi istioralar orqali shoir kalomning tiriltiruvchi, ruhni yuksaltiruvchi qudratini Iso Masih timsoli bilan uyg‘unlashtiradi. Bu hol Navoiy poetikasida tasavvufiy ramzlar tizimining naqadar puxta va konseptual ekanidan dalolat. Shuningdek, la‘lning rang, hudud (Badaxshon la‘li), ijtimoiy qiymat (shahvor la‘l, obdor la‘l) bilan bog‘liq talqinlari o‘rta asr madaniy-estetik qarashlarini ham aks ettirib, timsolning tarixiy-ijtimoiy qatlamini boyitadi. Natijada “la‘l” obrazi Navoiy she‘riyatida ishq, ma‘rifat, pir va murid munosabatlari, ilohiy kalom va ruhiy kamolot g‘oyalarini mujassamlashtirgan ko‘p funksiyali ramz sifatida qaror topadi.

Xulosa qilib aytganda, “la‘l” timsolining navoiyona talqinlari Alisher Navoiy lirikasining badiiy-falsafiy va tasavvufiy mohiyatini anglashda muhim kalitlardan biri bo‘lib, u mumtoz adabiyotimizda ramzlar poetikasini o‘rganish uchun keng ilmiy istiqbollari ochadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. 3-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2012. – 804 b.
2. Alisher Navoiy. Navodir ush-shabob. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. 3-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2012. – 768 b.

3. Alisher Navoiy. Badoye' ul-vasat. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. 3-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2012. – 764 b.
4. Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. 3-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2012. – 840 b.
5. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Э.И.Фозилов таҳрири остида. Тўрт томлик, учинчи том. – Тошкент: “Фан”, – 624 б.
6. Avaznazarov O. Navoiy timsollari so'zligi. – Toshkent: “Spectrum media group”, 2024. – 288 b.
7. Avaznazarov O. Mumtoz adabiyot namunalari uchun tasavvuf lug'ati. – Toshkent: “Tavfiqnashr”, 2025. – 458 b.
8. Ebû'r-Reyhân Muhammed bin Ahmed el-Bîrûnî. Kıymetli Taşlar ve Metaller Kitabı (Kitâbu'l-Cemâhir fî Ma'rifeti'l-Cevâhir). – Ankara: “Türk Tarih Kurumu”, 2023. – 380 s.
9. Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – İstanbul: Kabalcı Yayıncılık, 2016. – 440 s.
10. Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Гафур Ғулум номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 784 б.

